

Siyosat maydonnda

Siyosat dunyosida bu kun turli dahshatli hollar va hodisalar bo‘lib kelmakdadir. Buyuk Rusyaning boshinda qora bulutlar ko‘rina boshladi. Ingliz hukumatining siyosati bilan boshlang‘on muhoraba so‘nggi vaqtda eng daxshatli hollarni bechora Rusyaning boshig‘a soldi. O‘z ittifoqi bo‘lg‘on Rusyaning bu kungi shayton ingliz xalokat chuquriga tashladi.

Hozirda tilg‘romlar yo‘qliq sababidan har kungi hollar ma’lum bo‘lib turmasa ham, o‘n kunlab, yigirma kunlab yo‘l yurib kelgan g‘azetalar g‘oyatda vahimali xabarlar kelturadirlar.

G‘azetalarda o‘qulg‘onig‘a ko‘ra, Rumoniya; Girmoniya va ittifoqlari bilan sulh qilg‘on. Rumoniyaning bu oqilona harakati uchun Turkiya, Girmoniya mukofot etib, anga Rusyaning “Bisarobiya”sin bermoqchi bo‘libdir.

Rus gazetalarining xabarig‘a qarag‘anda, Rumoniya askarlari girmon-turk askarlari bilan birlashib, ustimizg‘a yurmoqchi va balki yurg‘on emishlar.

Do‘sstarimiz Ongliya, Fronsiya, Yopuniya va Amrika bu kunlarda bolshuvik harakatidan qo‘rqub, siyosat plonlarini olishtirg‘onlar. Go‘yo Fransiya, Ongliya hukumati Girmoniya bilan ikki oyliq muzokara qilg‘onlar va tezdan sulh qilib, bizning ustimizga yurarlar emish.

Yopuniya esa shu kundan boshlab Sibirija, Manjuriya tuproqlarida o‘z manfaatini muhoqala qilmoq uchun askar yubora boshladi.

Rusya: Ongliyaning yog‘li so‘zlariga berildi; o‘zining dunyo yuzidan yo‘qolovi uchun yozilg‘on ahdnomalarg‘a qo‘l qo‘ydi. Mana endi uyg‘onliq so‘zlarig‘a ishonib qilg‘on imzolari bu kun Rusyaning boshig‘a falokatlar keltirdi, butun olam Rusyaning janozasini kuta boshladi. Rusyaning oyri sulh qilishini “falokat” deb qarshi olgan Ongliya bu kun Rusiyani yo‘qotmoq uchun o‘zi sulh qiluvg‘a tilaydir.

Dunyoda “umumiy sulh kerak” deb boqirg‘on, sulh “komisiyolari” tuzurgan Amrika, bu kun o‘z nafsi uchun muhorabaning davomini va Rusyaning taqsimini ochiqdan-ochiq talab qiladir.

Qayda qoldi Istanbul va Chanoq qal‘a hayollari bilan xalqni muhorabaga oshiqturg‘on xoyin Milukuflar?... qayda qoldi Armaniston hukumati terguzmak uchun “talabnama” yog‘dirg‘uchi ... muvaqqat hukumat iqrori?... qayda qoldi Turkistonning tuprog‘ini boshdan boshka havog‘a uchuraturg‘on oliv qo‘mondon nomini olg‘on “gimnozist”lar?... qani bunlar chiqib Bessorobiyanititfoqchimiz Rumoniyadan, Sibiriyani do‘stimiz Yopuniya va Xitoydan, Turkistonni Ongliya asoratidan, ichki Rusiyani Girmoniya hujumidan qutqarsunlar edi!...

Rusiyada dohiliy yo‘q inqilob, qon to‘kilishlar bolalag‘on bir vaqtda Finlandiya o‘zini boshqa oyirdi; Ukrayina Bisarobiya, Qrim, Kafkaz, Sibirija, “Dun” qozoqlari,

tatar va boshqa millatlar boshqa-boshqa muxtoriyat e'lon etib... o'zlarini halokatdan qutqardilar. Har qaysilari hayolparast Rusiya ulug'larining so'zlarig'a qulqoq solmasdan, millat va vatanlarining huquqini o'zlar oldilar va o'zlar hukumat qurdilar; xiyonotkorlarning hiylalariga oldanmasdan, dushmanlarning panjayi vahshiyonalarindan vatanlarini xalos qildilar. Shunday qilmag'onda, butun Rusiya o'lkasi sotilg'onliqdan dushmanlar yerlari bilan boshqa hukumatlarga qul bo'lub qolurlar edi.

Lekin bu orada yolg'iz bechora Turkiston o'z huquqini ololmay qoldi...

Ey Turkiston eli! Kutmanglar, o'z haqingni ol!... Muxtoriyat inom tamal muqaddasini amalga qo'y!...

Albatta, Turkiston uchun kutilaturg'on narsa qolmadidi. Yangi bu kundan boshlab milliy askar tuzuluvi kerak. Turkiston o'lkasini saqlamoq uchun askarga ehtiyoj turadir. Chunki bu kungi siyosat Turkiston uchun hisobsiz falokat chiqurlari xozirlamoqdadidir. Turkiston bu muhorabadan qurbonsiz qutilolmas. Bu qonli muhoraba bir vaqt Turkistonda qonlar va inqiloblar chiqarur, Turkiston ko'ngillarinda qora bulutlar uchmay qolmas, bunday zamonda hamma xalq sulh uchun sulh bo'lsin. Chunki sulh talab etmak uchun musallah bo'lmoq shart a'zimdir. Shu vaqtg'acha uxlaganimiz yetar, bu kundan boshlab butun nom va shonimizg'a muvofiq "yigit"ligimizni ko'rsatayluk. Agarda turk bolalari bo'lsak, vujudimizda turk qoni bo'lsa, albatta tek turmay, musallah bo'lib, qizil bayroqning ostig'a to'planib, vatanning muhofazasi uchun jon va mollarimizni fido qilishimiz kerakdir. Vatanimizga xoin ingliz va xitoyni kirguzmas uchun butun kuchimiz bilan olarg'a qarshi turayluk ya'ni o'lmakka hozir bo'layluk! Boylarimiz davlatlari bilan, kambag'allarimiz qo'l kuchlari bilan, yigitlarimiz g'ayrat va shijoatlari bilan, ulamomiz va'z va nasihatlari bilan xotunlarimiz qo'l ishlari Turkiston muxtoriyatini muhofaza qilmoq, aziz vatanimizni dushmanlardan saqlamoq uchun tayyor qilinaturg'on milli askarimizg'a yordam bersunlar!

O'g'uzxon (Namangan)
"Hurriyat" gazetasi. 1917 yil 19 fevral.